



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-avgust

437-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi 500-son qarori ijrosi haqida” 390-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi 500-son qarori ijrosi haqida” 390-6-0-Q/24-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi 500-son qarori ijrosi haqida” 390-6-Q/24-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF–208-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda-Qo‘mita) bo‘ysunuvi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

Qo‘mitaning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va javobgarligi, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibi;

Qo‘mita rahbariyatining hamda hududiy bo‘linmalarining asosiy funksional vazifalari va javobgarligi;

Qo‘mita faoliyatini moliyalashtirish, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish tartibi;

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida yuridik shaxs bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasini rivojlantirish va xodimlarini moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda- Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasini rivojlantirish va xodimlarini moddiy rag‘batlantirish 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom belgilanishicha, 2024-yildan boshlab har yili Davlat budjeti parametrlarida Jamg‘arma uchun 15 mlrd. so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda mablag‘ ajratish nazarda tutilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Qo‘mita bilan birgalikda mazkur qaror ijrosi yuzasidan 2024-yil uchun tasdiqlangan xarajatlar smetasiga tegishli o‘zgartirish kiritilishini ta‘minlashi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mahalliy budjet mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari, tuman (shahar) oila va xotin qizlar bo‘limlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini ko‘rishi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ba‘zi qarorlari 3-ilovaga muvofiq, o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi;

Qo‘mita manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov mahalliy byudjet mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tuman oila va xotin-qizlar bo‘limining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i F.Egamberdiyeva, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi 500-sonli qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i F.Egamberdiyeva zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov